
OHANG NUTQDA MA'NO IFODALASH VOSITALARIDAN BIRI

Gulchehra Toshpo'lot qizi Cho'lliyeva

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA:Ma'lumki, nutq rang-barang ma'no ifodalashi bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy xabar berish yoki ma'lumot olish maqsadidan tashqari nutq vaziyati hamda kommunikantlarning individual xususiyatlari, suhbatdoshiga nisbatan munosabati, hissiyotlari yoki shaxsiy belgilari kabi turli ma'nolar ham o'z ifodasini topadi, anglashiladi. Nutqiy muloqotdan asosiy hamda individual axborotlarni suhbatdoshga yetkazib berish uchun lisoniy, shuningdek, nutqiy birliklar birgalikda umumlashgan holda "harakat qiladi". Demak, lisoniy va nutqiy, verbal hamda noverbal birliklarning nutq maqsadini amalga oshirishdagi rol beqiyos. Shunday vositalar orasida ohang ham kommunikantlarning nutqda maqsadini ro'yobga chiqaruvchi, nutq egalari haqida o'zigagina xos bo'lgan shaxsiy xislatlari haqida ma'lumot beruvchi vositadir. Maqolada ohangning nutqiy jarayondagi ana shunday xususiyatlarni ifodalashdagi o'rni, vazifasi xususida fikr yuritilgan bo'lib, badiiy asarlardan misollar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: lisoniy sistema, nutqiy tizim, ohang, prosodika, verbal, noverbal, nutqiy birliklar, lisoniy birliklar.

АННОТАЦИЯ:Как известно, для речи характерно множество значений. В этом процессе, помимо основной цели общения или информации, выражаются различные значения, такие как состояние речи и индивидуальные характеристики коммуникаторов, их отношение к собеседнику, чувства или личные характеристики. Лингвистические и речевые единицы работают вместе, чтобы передать базовую и индивидуальную информацию из речи собеседнику. Следовательно, роль языковых и вербальных, вербальных и невербальных единиц в реализации цели речи несравнима. Среди таких средств мелодия - это средство достижения цели коммуникаторов в речи, информирование их о личных качествах говорящих. В статье обсуждается роль мелодии в выражении таких особенностей в речевом процессе, поясняется на примерах из произведений искусства.

Ключевые слова:языковая система, речевая система, тон, просодия, вербальный, невербальный, речевые единицы, языковые единицы.

ANNOTATION:As you know, speech is characterized by many meanings. In this process, in addition to the main purpose of communication or information, various meanings are expressed, such as the state of speech and the individual characteristics of communicators, their relationship to the interlocutor, feelings or personal characteristics. Linguistic and speech units work together to convey basic and individual information from speech to the interlocutor. Consequently, the role of linguistic and verbal, verbal and non-verbal units in the realization of the goal of speech is incomparable. Among such means, melody is a means of achieving the goal of communicators in speech, informing them about the personal qualities of the speakers. The article discusses the role of melody in the expression of such features in the speech process, explains with examples from works of art.

Key words:language system, speech system, tone, prosody, verbal, non-verbal, speech units, language units.

Nutq o'z ichiga turli qismlarni birlashtirgan, yaxlit ma'no ifodalash uchun xoslangan birliklar yig'indisi – murakkab jarayondir. Bu jarayonning yuzaga kelishidan asosiy maqsad axborot olish hamda axborot uzatish bo'lsa, bundan tashqari turli xil xususiy ma'lumotlarni

uzatish ham shu jarayonning maqsadi hisoblanadi. Nutq jarayoniga kirishayotgan kommunikantlarning shu jarayon yuz berayotgandagi kayfiyati; so'zlovchining individual o'ziga xosliklari (masalan, yoshi, jinsi, millati, yashash tarzi va h.k.) kabilarni tinglovchiga yetkazish uchun til birliklarining imkoniyati cheklangan vaqtda ohang hamda intonatsiya kabi noverbal vositalarning ishtiroki juda zarur hisoblanadi. Avvalo, intonatsiya hamda ohang tushunchalarini tahlil qilsak.

“Ohang” so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha izohlangan:

1. Fors tilidan olingan bo'lib, kelishuv, hamjihatlik; yoqimli tovush, kuy; hamohanglik, uyg'unlik kabi ma'nolarni ifodalab, bir-biriga ulangan, uyg'unlashgan yoqimli tovushlar oqimi. Ariqdan mayin **ohang** bilan suv oqar.

2. Turli tovushlarning ma'lum bir tartibda uyg'unlashib, musiqiy butunlik tashkil etgan birikmasidan iborat musiqa asari; kuy. Bu ashulaning **ohangi** juda yaxshi ekan.

3. Nutqda ma'noga qarab ovozning ko'tarilishi va pasayishi; intonatsiya. Buyruq **ohangi**.

4. So'zlovchining ichki his-tuyg'ularini ifodalaydigan talaffuz uslubi. Arazlagan **ohangda** so'zlamog.

5. ko'chma kam qo'll. Narsalarning o'zaro qo'shilishidagi moslik, uyg'unlik. [22]

“Intonatsiya” esa lotincha so'zdan olingan bo'lib, baland ovozda gapirmoq, talaffuz qilmoq degan ma'noni ifodalab, so'zlovchining nutq mavzusiga munosabatini, his-tuyg'usini ifodalovchi talaffuz uslubi; ton.

2. tlsh.Tovushning o'zgarishidan, past-baland bo'lib turishidan iborat bo'lgan ritmik ohangdor nutq tuzilishi; ohang deb izohlangan. [23]

Shu izohdan kelib chiqib, aytadigan bo'lsak, nutqiy muloqot jarayonida ma'lum bir ma'no ifodalash uchun birlashgan til va nutq birliklarini tovush tomonidan uyg'unlashtiruvchi, hamohangligini ta'minlovchi, bir-biriga uyushtiruvchi vosita ohang, so'zlovchining nutq mavzusiga munosabatini ifodalab keluvchi ohangning baland-past, cho'ziqlik kabi ritmik o'lchovlari intonatsiya hisoblanadi. Bu ikkala tushunchani bir-biridan farq qilmaydigan, biri ikkinchisiga bog'liq bo'lgan hodisalar deb tushunish mumkin. Shu sababli biz ishimizda bu ikki tushunchani birgalikda almashtirib qo'llayverdik.

Nutqning yozma shakli uchun tinish belgilari so'zlovchining ma'lum hissiyoti va ichki kechinmasini berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan,

Shoir bo'lib tug'ilmasaydim,

Ko'rmas edim bunchalar xo'rlik...

— Anvar, qo'ysang-chi, hazillashdim-ku? Shuncha yillik ayriliqdan keyin bir hazillashsam...

— Men seni sog'indim... Xatlarimga nima uchun javob bermading? Meni ko'rishni ham istamagan edingmi?.. Endi nimaga kelding? Men seni qutqarishga ojiz edim. Endi sen meni ozod etmoqchimisani? Unamasam-chi?

— Anvar, xatlarimga javob bermay, Uchquduqda ko'rishishga chiqmaganimning sababini boshqa safar aytib beray. Mana bu yerimda, — Elchin ko'ragini mushtladi, — jon qolmagan, zardobga to'la. Dardim to'lib-toshgan, senga aytmasam kimga aytaman?[21;10]

Yuqoridagi parchada “Men seni sog'indim...” jumlasidagi ko'p nuqta qahramonning cheksiz his-hayajonini, “Meni ko'rishni ham istamagan edingmi?..” jumlasida esa berilayotgan savolning his-hayajonga to'la, qandaydir bir o'zgacha hissiyot bilan aytilayotganini, so'zlovchining tinglovchiga befar emasligini ifodalashga xizmat qilgan. “Ko'rmas edim bunchalar xo'rlik...” jumlasidagi ko'p nuqta fikrning hali davomi bor, yakunlanmaganini ifodalagan.

Til o'zining rivojlanish va taraqqiy etish qonuniyatlariga ega "tizimlar tizimi" ekanligini bilamiz. Tilshunoslikda tizimlar tizimining fonetik-fonologik yarusi bilan aloqador prosodika tushunchasi mavjudki, u mavzu doirasidagi adabiyotlarda tilning fonologik tizimiga tegishli birlik sifatida talqin etiladi [19]. Zero, har bir mohiyat, tushuncha yoki birlik qaysi lisoniy tizimning elementi (tarkibiy qismi) ekanligiga qarab o'zi mansub qurshovda muayyan paradigmadagi turadi, assotsiativ va ayni paytda oppozitiv xususiyatlarni namoyon etadi. Ya'ni har qanday tarkibiy qism o'zining birliklari, qonun-qoidalari va uslublari ega bo'ladi. Ularning nutqiy voqelanmalari esa muayyan mavzu to'dalari yoki mavzuviy guruhlarda birlashadi. Shu fikrlar bilan bog'liq tarzda prosodika haqida to'xtalamiz.

Prosodika substansional sath o'lchovi sifatida nutqning fiziologik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan fonologik birlik hisoblanadi. Fonetik-fonologik birliklarning lisoniy-vazifaviy xususiyatlari va tildagi vazifalari, til mexanizmidagi rolini tadqiq qiluvchi fonologiyaning tarkibiy qismlari fonema, sillobema, aktsentema va intonema deb nomlanadi. Fonologiyaning o'zi segmental va supersegmental fonologiyaga ajratiladi. Prosodika supersegmental fonologiyaning predmeti bo'lmish sillabema, aksintema va intonemaning umumlashmasi hisoblanadi [1].

Tilning asosiy komponentlaridan biri – intonatsiya (ohang) bo'lib, ifodalanayotgan nutqning ohangi o'ziga xos murakkab qurilish va turli vazifalarga egaligi bilan ajralib turadi.

Nutq ohangining urg'u, melodika, temp va tembr kabi hamda keyingi tadqiqotlarda pauza kabi tarkibiy birliklarini ko'rsatishimiz mumkin.

Bir guruh mutaxassislar tovushning baland yoki past ohangi bilan belgilanadigan gapirish manerasi, so'zning talaffuz etilish xarakterini intonatsiya deb hisoblashsa, yana bir guruh olimlar intonatsiya so'zlovchining sof "men"ligi, o'zgalarga nisbatan muomala-munosabatining yorqin ifodasi ekanligini e'tirof etishadi.

Yevropa tilshunosligida qariyb to'rt asrdan beri, rus tilshunosligida ikki yarim asrdan beri, o'zbek tilshunosligida esa keyingi o'n besh-yigirma yillardan buyon o'z tadqiq metodlari bilan ommalashgan antroposentrik tilshunoslik nutq ohangi masalasiga nutqiy sharoitning sof tarkibiy qismi sifatida yondashadi.

Tom ma'noda, bugungi kunga kelib jahon tilshunosligida nutq ohangi masalalarini tadqiq etuvchi **intonologiya** tilshunoslikning alohida sohasi sifatida rivojlanmoqda.

O'zbek tilshunoslikda intonatsiya fonetika sathining tarkibiy qismi, nutqning unsuri sifatida qarab kelingan va nutqiy jarayonda til birliklarini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi; gapning darak, so'roq yoki buyruq mazmunini belgilab beruvchi; gapning davomiyligi yoki tugaganligi kabi ma'nolarni ifodalovchi vosita sifatida tadqiq qilingan. Bugungi kunda esa til unsurlarini real nutqiy jarayon nuqtayi nazaridan, ya'ni pragmatik aspektida tahlil qilish natijasida intonatsiyaga ham nafaqat ma'lum bir grammatik mazmuni beruvchi vosita, balki nutqiy vaziyatda suhbatga kirishuvchi kommunikantlarning emotsional, ruhiy, psixologik holati kabi xususiyatlari haqida ham ma'lumot beruvchi noverbal vosita sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari jahon tilshunosligida har bir tilning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, nutqiy jarayoniga bog'liq bo'lgan o'ziga xos intonatsiyasi o'rganilmoqda. Masalan, shu paytgacha ozarbayjon tili intonatsiyasi, turk tili intonatsiyasi, qozoq tili intonatsiyasi, rus tili intonatsiyasi kabi bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan. Ammo o'zbek tili intonatsiyasining o'ziga xosliklari hali alohida monografik tadqiqot sifatida maxsus tahlilga tortilmagan. Biroq o'zbek tilshunosligida til grammatikasida yoki pragmatik xarakterdagi ishlarda intonatsiya borasida fikr bildirilmagan, tadqiqotlar ham kam. Jumladan, oliy ta'lim tizimi filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislik fanlari "Hozirgi o'zbek tili", "Til tarixi", "Shevashunoslik" kabi, o'rta umumta'limning "Ona tili", "O'zbek tili" kabi o'quv

predmetlari darsliklari hamda o'quv qo'llanmalarida grammatik talqinlar sirasida ohang haqida bevosita, bilvosita ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, M.Mirtojiyev intonatsiyaning umumiy xususiyatlari haqida, E.Qilichev intonatsiyaning stilistik imkoniyatlari, A.Haydarov esa intonatsiyaning badiiy nutqdagi uslubiy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan ilmiy izlanishlar ham mavjud.

Ergash Qilichevning "O'zbek tilining praktik stilistikasi" kitobida talaffuz va intonatsiyaning stilistik xususiyatlari, vazifasi va uning tarkibiy qismlariga ahamiyat berilgan. Nutqda ohangning o'rni muhimligi olim tomonidan ta'kidlangan bo'lsa-da, u og'zaki nutq tizimining asosiy bo'lagi sifatida ajratilmagan. Aytish joizki, keyingi yillarda lingvopoetik, lingvostilistik xarakterdagi tadqiqotlarning ko'payishi poetik nutq intonatsiyasining o'ziga xos jihatlari e'tibor qaratilishini bir qadar kuchaytirdi.

Tilshunos H.Jamolxonov "Intonatsiya og'zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi" [8], deb ta'kidlaydi. Biz bu fikrga qo'shimcha tarzda aytmoqchimizki, **ohang nutqiy muloqotda situativ pragmatik tizimning sof tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, muloqot jarayonida lisoniy verbal vositalar bilan barobar qo'llaniluvchi lisoniy noverbal hodisadir.**

Demak, shu o'rinda nutqda voqelanuvchi **lisoniy verbal, lisoniy noverbal** hamda **nolisoniy** birliklarni farqlash lozim. Manbalarga tayangan holda lisoniy verbal birliklar sifatida fonema, morfema, leksema, frazema, qolip kabilarni ajratishimiz o'rinli. Lisoniy noverbal birliklar deganda ohang va (nutqiy muloqotda, ko'pincha, uning o'rnida qo'llaniladigan) sukut kabilarni nazarda tutdik. Nolisoniy birliklar sirasiga nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni, so'zlovchi va tinglovchining vaziyati, ruhiy holati, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabi xususiyatlar bilan bog'liq omillar; imo-ishora kabilarni (olib borayotgan izlanishlarimiz asosida) kiritishni lozim topdik.

Nutqiy muloqot tizimida **lisoniy verbal, lisoniy noverbal** hamda **nolisoniy** birliklar bir pragmatik tizimda birlashadi va bir-birini taqozo etuvchi hamda bir-biri bilan oppozitivlik hosil qiluvchi alohida pragmatik qatorlarda turadi.

Nutq so'zlashuvchilarning psixologiya, ayni paytdagi kayfiyati yoki yoshi, lavozimi, urf-odatlar, tarbiyasi kabi ko'plab omillarning ta'siri bilan yaratiladi. Bu jarayonda har ikkala zukko suhbatdosh bir-birlarining nutq ohangiga qarab suhbat mavzusini o'zgartiradilar, vaqtini belgilaydilar, tomonlar munosabatini anglaydilar, jarayonni baholay oladilar.

So'zlashuvchilarning his-tuyg'usini ifodalashda til birliklari bilan birgalikda turli xil jest va mimikalar, odatda, noverbal til vositasi sifatida qo'llaniladi. Kommunikantlar maqsadi, ya'ni insonning suhbat vaqtidagi jismoniy va ruhiy holati nafaqat bu vositalar orqali, balki suhbatdosh nutqining ohangi, uning akustik o'ziga xosligi bilan ham namoyon bo'ladi. Masalan, ohang nutq mavzusi o'zgartirilgani, tugagani yoki mavzuga suhbatdoshning e'tirozi, roziligi kabi xususiyatlari, savol mazmunining darak mazmunidan farqi kabi ko'plab tushunchalarni o'zida aks ettira oladi.

"Har qanday nutq harakatdir, bu harakat esa, albatta, ma'lum intonatsiya bilan qo'shib, qorishib yuzaga keladi: nutqning toni, sur'ati, pauzalari, tonning balandligi va kuchi gapning mazmuni va emotsionalligi talabidan kelib chiqqan holda o'zgarib, tovlanib turadi..." [8]. Demak, harf va so'zlar ohang yordamida to'laroq ma'noni ifodalash xususiyatiga ega bo'lar ekan.

Diskurs ohangning turlichaligi bilan xarakterlanadi. Ohang nafaqat so'zlovchining xarakteri yoki ayni vaziyatdagi ruhiyatini ifodalab qolmay, u har bir xalq vakilining milliy o'ziga xosligini ham aks ettiradi. Chunki har xil mentalitet a'zolari turlicha ohangdan foydalanadilar. Qanday diskursda bo'lmasin ohang aloqa vositasi, his-tuyg'u ifodachisi yoki nutqni

shakllantiruvchi bo'lak sifatida namoyon bo'ladi. So'zlovchi nutqi ohangini to'g'ri tahlil qila olish nutq maqsadini to'g'ri tushunishning kaliti hisoblanadi.

Badiiy asar muallifi ham nutqiy vaziyatni yoxud qahramonlarning ichki kechinmalarini berish, suhbat jarayonini o'quvchiga yorqin his qildirish uchun so'zlovchi tomonidan aytilayotgan gapning ohangini aks ettirishga harakat qiladi. Asar qahramonlarining turli individual xususiyatlari, nutq vaziyatidagi holati, nutqdan maqsadi kabilarni ularning nutqi ohangida aks etadi. Masalan,

a) fikrning hazil, yengil mutoiba bilan berilgani:

Temir panjarani buzib uchinchi qavatga chiqqisi keldi. Panjarani siltab tortdi. Temir sharaqlab ketib, hamshirani cho'chitib yubordi. U uyqusiragan holda shoshib boshini ko'tardi-da, atrofga alangladi. Anvarni ko'rib, o'rnidan turdi.

— Sizmidingiz? Qo'rqib ketibman, — dedi. «Demak, mendan qo'rqmaydi. Demak, mening esim sog'. Bu yaxshi», deb o'yladi Anvar.

— Xavotir olmang. Kelajagi porloq havaskor yosh jinnilaringiz orom qo'ynida javlon urmoqdalar, — dedi u hamshiraga, **hazil ohangida**. [21;7]

b) buyruq, tahdid, biror ish qilishga qistash, qat'iylik ma'nosi:

— Mana, oshna, — dedi u kulib, — shu oromgohda davlatning tekin ovqatini yeb etibman. Besh kun ishlamaymiz, ikki kun dam olamiz. Kelajagi porloq havaskor jinnilar yuksak ongliklik namunalari ko'rsatmoqdalar. Haligacha birorta do'xtirni yeb qo'yishgani yo'q, — u shunday deb tabibboshiga qarab qo'ydi. — Men bu yerda dunëning tuzilish formulasini ishlab chiqdim. Birgina masala qoldi: shu opamni so'ysam, necha kilo go'sht berarkin? Chamamda yetmish kilo. Nima deysan? Kalla-pochalari bunga kirmaydi. U shundoq deb do'mboqqina, oppoqqina tabibboshiga ko'zlarini lo'q qilib oldi. Elchin uning bu ahvoliga ishonib-ishonmay bir oz o'zini yo'qotdi. So'ng tabibboshiga qarab, iltimos qildi:

— Men oshnam bilan gaplashib olay, malol kelmasa siz chiqib turing. Tabibboshi malol kelganini yashirmay chimirilib qo'ydi. Elchin buni sezib **endi qat'iyroq, buyruq ohangida** dedi:

— Siz hujjatlarni to'g'rilang, hozir ketamiz. [21;18]

c) fikr va tuyg'ularning aralash kelishi:

— Gapning uyingdan ham sovuq, a? Odam ham yolg'iz bo'larkanmi? Faqat Xudo yakka! Sening bola-chaqang bor, akam yo'q deysan, men kimman, katta xolangning erimanmi?

Yarim po'pisa, yarim hazil ohangidagi bu gap oradagi sovuqlikni picha ko'targanday bo'ldi.

— Akamsan, sen akamsan... — dedi Asadbek o'zini jilmayishga majbur qilib. Lekin bu hazin jilmayishini qorong'ilik yutib yubordi — Jalil ham ko'rmadi. — Samandar tirik bo'lganida... [21;21]

d) horg'inlik, qahramonning charchagan holati ifodasi:

Tashqarida qor bo'lmagan, oy ko'tarilmagan uchun atrof tezda zimistonga aylandi.

— Samandar o'lmaganida qirqqa qadam qo'yardi, — dedi Asadbek, **horg'in ovozda**. Jalil bu horg'inlik zamirida titroq ham sezdi. Juda ko'p yillardan beri oshnasini bu holda ko'rmagan edi. Shu sababli darrov javob qaytarishga so'z topolmadi.

— Ha, endi... umri kalta ekan... Hur ketdi, — dedi. — Bu olamda na akam bor, na ukam... yolg'izman... [21;21]

e) qahramonning nutqini aniqlashtirish, holatni to'g'ri tushunishni yordamlashish:

Elchin kuragi ostiga pichoq sanchilishini kutdi. Buning o'rniga qorong'ilikdan Asadbekning ovozi keldi. — Ha, hofiz, eson-omon chiqib keldingizmi?

Asadbekning **ovozida piching yoki tahdid ohangi yo'q** edi. Elchin bundan yengil tortdi. Xavotiri bekor ekanini anglab, ovoz kelgan tomonga qarab salom berdi. — «Keldim» deb ham

qo'yimaysiz-a, hofiz, — dedi Asadbek salomga alik olib. — Har holda men sizga begona emas edim. Aka-ukaligimiz bor edi, a? (20-bet)

f) gina, xafalik ohangi:

Asadbekning «sizni otuvdan olib qolgan men bo'laman» demoqchi ekanini Elchin fahmladi. Ko'zi qorong'ilikka o'rganib, uying chap tomonida do'ppayib turgan tanchani, devorga suyanib o'tirgan odam qorasini ilg'adi. Uchrashuv nima uchun qorong'ida bo'layotganiga tushunmadi. — Qamoqdan qaytgan ukadan xabar olish akadan lozim, deb o'ylabman, — dedi Elchin **gina ohangida.** ([21;20])

g) haqiqatni yashirish, o'zini sotib qo'yimaslik:

Zohid qalin daftar ochib, taomilga ko'ra Namozovni so'roq qila boshladi. Ism-sharifini, tug'ilgan yili, kunini so'radi. Namozov savollarga **qisqa, sovuq ohangda** javob berar edi. — Qoradorini sizga kim yetkazib berar edi? — deb so'radi Zohid asosiy maqsadga ko'chib. — Tanimayman, — dedi Namozov **gap ohangini o'zgartirmay.** U qamoqqa kimning istagi bilan kelib qolganini anglagan, puxta o'ylangan tuzoqqa tushganini fahmlagan edi. Tuzoqdan qanday qutulishni bilmas edi. Tergovchi ham balki ularning odamidir, degan o'y uni nochor ahvolga solib qo'ygan, na ochiq gaplashishni, na o'zini go'llikka solishni bilardi. Qisqa muddat ichida tanlanishi mumkin bo'lgan yagona yo'l — «bilmayman» deb turish. Zohid uning tutgan yo'lini ko'ra bildi. [21;33]

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ohang qahramonning nutqini aniqlashtiruvchi asosiy vositalar qatorida turadi. Ba'zan jumla ohangi berilmasa, nutq maqsadi aniqlashmaydi, hatto teskari ma'noda tushunilishi mumkin. E'tibor bering:

Sharif darvoza eshigidan tashqariga chiqib ikki-uch qadam yurgach, to'xtab, o'girildi. Tepasi sim to'siqli devor balandligini chamalaganday uzoq tikildi. Shu payt ènida sutrang «Jiguli» to'xtab, xayolini buzdi. O'zini chetga olishiga ulgurmay mashina eshigi ochildi. — O'tiring, okaxon, — dedi jingalak sochli yigit, mehribonlik bilan.

— Rahmat, uka, ovora bo'lmang, — dedi Sharif. U «yigit biror tanishimning yo ukasi yoki o'g'li bo'lsa kerak, tasodifan ko'rib qoldi», deb o'yladi. Qamoqdan chiqqa solib tanishga uchraganidan hatto xijolat bo'ldi. Odamlar aybi bormi yo yo'qmi deb mulohaza qilib o'tirishmaydi. «Qamoqda o'tirib chiqqan», deb, ola qarashadi.

— O'tiring, — dedi Jamshid. Bu safar **uning ovozida mehribonlik emas, qat'iylik, amr ohangi** zohir edi. Garangsib turgan Sharif buni sezmad. Jamshidning atayin kutib turgani ham uning xayoliga kelmas edi. — Men eski shaharga boraman, — dedi Sharif. — O'tiring, o'sha yoqqa ketyapman. [21;66]

Shunday qilib, muloqot jarayonida yuzaga kelayotgan nutq o'sha vaziyatdagi ohangning rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Ohang yordamida kommunikantning turli xususiyatlari bilan bir qatorda millatiga tegishli bo'lgan o'ziga xoslik; gender xususiyatlar; kasb-koriga xos bo'lgan alohidaliklar; yashash tarziga aloqador tomonlar, tom ma'noda, sanoqsiz ma'nolar ham namoyon bo'ladi. Nutq ohangi tovlanishlarini to'g'ri tushuna olish va lingvistik hamda pragmalingvistik vositalarni to'g'ri talaffuz qila olish nutq maqsadini to'g'ri anglab yetishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. — T.: Sharq, 2010. —178 b. — 22-b.
2. Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. — T.: Yangi asr avlodi, 2019.— 397 b.
3. Артунова. Н.Д. Предложение и его смысл. — М.: Либроком, 2013.
4. Бурак М.А. Реализация интонации в дискурсе. — Курск, 2010. —14-с.

5. Gasanova T.N. Краткая история развития и формирования интонологии // Молодой ученый. – 2012. – №9. – С. 182-185.
6. Naydarov A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari//BuxDu ilmiy axborotnomasi.–Buxoro, 2006. – 3-son.–69-72-b.
7. Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2018.– 206 б.
8. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fanetikasi. – Т.: Fan, 2009. –224 б.
9. Кантер Л.А. Системный анализ речевой интонации. – М., 1978.–92-114-с.
10. Mirtojiev M. Tovushlardagi ma’no. – Т.: O‘zbekiston, 1982.– 24-b.
11. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1985. –104 б.
12. Торсуева И. Г. Интонация и смысл высказывания. – М., 1979.
13. Юлдашева Д. Н. Сукут нуткий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. www.tadqiqot.uz
14. Tueva Zulfiya Nozimovna, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Statement and about its types. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag.72-77. <https://elibrary.ru/item.asp?id=44644256>
15. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf
16. Ашурбаева Р. К. Концепция интеграции и ее применение в образовании SOI: 1.1 / TAS DOI: 10.15863/TAS// Теоретические и прикладные науки. 2020. 02 том.
17. Chullieva G.T. Units of speech intonation//International Journal of (IJRD). Research & Development Monthly Peer Reviewed. Volume: 5, Issue:10, October 2020. EPRA 259-263-р.
18. Chullieva, Gulchehra Toshpulot kizi;. Units of speech intonation//Research & Development, Volume: 5, Issue:10,259-263,2020.
19. Дубровина С.Н. Вариативность как универсальное свойство языка. Верхневолжский филологический вестник (журнал).2015 й.,№ 3.
20. Кантер Л.А. Системный анализ речевой интонации. Учебное пособие. – М.: Быфшая школа, 1988. 129 с.
21. Тоҳир Малик. Шайтанат, 1-қисм. 163 бет. library.ziyonet.uz/
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. О ҳарфи. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. [ziyouz.com kutubxonasi](http://ziyouz.com/kutubxonasi).
23. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И ҳарфи. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. [ziyouz.com kutubxonasi](http://ziyouz.com/kutubxonasi).